

TPR orqali fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatish (amaliy misollar asosida)

Barnoxon Odiljonovna Toshboyeva
<https://orcid.org/0009-0009-3016-1677>
Ibrohimjon Ilxomjon o'g'li Bo'lishev
<https://orcid.org/0000-0002-5274-6141>
Turon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda Total Physical Response (TPR) metodidan foydalanib fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatish haqida yoritilgan. Tadqiqot amaliy dars tajribasi asosida olib borilgan bo'lib, boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning ingliz tilidagi fe'l va buyruq gaplarni jismoniy harakatlar orqali o'zlashtirish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari TPR metodining o'quvchilarning tinglab tushunish, eslab qolish va darsga qiziqishini oshirishdagi samaradorligini ko'rsatadi. Maqolada TPR metodini dars jarayonida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Total Physical Response, TPR metodi, fe'llar, buyruq gaplar, chet tilini o'qitish, boshlang'ich sinf, interfaol metodlar

Teaching Verbs and Imperatives through TPR (Based on Practical Examples)

Barnoxon Odiljonovna Toshboyeva
<https://orcid.org/0009-0009-3016-1677>
Ibrohimjon Ilkhomjon o'g'li Bo'lishev
<https://orcid.org/0000-0002-5274-6141>
Turon University Andijan Branch

Abstract: This article explores the use of the Total Physical Response (TPR) method in teaching verbs and imperative sentences in foreign language classrooms. The study is based on practical classroom experience and focuses on how beginner learners acquire language through physical actions. The findings indicate that TPR significantly improves learners' listening comprehension, memory retention, and classroom engagement. The article also provides practical recommendations for implementing the TPR method in language teaching.

Keywords: Total Physical Response, TPR method, verbs, imperative sentences, foreign language teaching, interactive methods

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri, chet tillarini o'qitishda o'quvchilarning darsga faolligini oshirish, ularni til o'rganishga jalb qilish va til materialini samarali egallashdir. An'anaviy grammatika va tarjimaga asoslangan metodlar, ayniqsa boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarda, ko'pincha qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu metodlar o'quvchilarni faqat passiv tinglovchi sifatida qoldiradi, ularning darsga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni sekinlashtiradi [1,p.12]. Shu sababli, pedagogik amaliyotda ayniqsa boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar uchun interfaol va jismoniy faoliyatga asoslangan metodlar talab etiladi. Til o'rganish jarayonida fe'llar va buyruq gaplarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Fe'llar harakatni ifodalaydi va harakat orqali tushuntirilganda o'quvchilar til birliklarini tezroq egallaydi. Buyruq gaplar esa o'quvchilarni bevosita faoliyatga jalb qiladi, ularni nutq va harakatni bog'lashga o'rgatadi [2,p.45]. Shu sababli fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishda jismoniy harakatga asoslangan Total Physical Response (TPR) metodi juda samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda chet tilini o'qitishda TPR metodining ahamiyati shundaki, u tilni amaliyotga bog'lab o'rgatadi va o'quvchilarning tinglab tushunish, xotirada uzoq vaqt saqlab qolish hamda og'zaki nutqdagi faolligini oshiradi. Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi TPR metodidan foydalangan holda fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishning samaradorligini amaliy misollar asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va til darajasi inobatga olindi, bu esa metodning boshlang'ich bosqichdagi samaradorligini aniq ko'rsatdi [5,p.18].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot pedagogik tajriba va kuzatuv metodlari asosida olib borildi. Tadqiqot boshlang'ich bosqichdagi chet tili o'quvchilari bilan amalga oshirildi, chunki ular tilni o'rganishda yangi boshlovchilar hisoblanadi va TPR metodini qo'llash uchun qulay sharoit yaratadi [4,p.33]. Tadqiqot quyidagi uchta bosqichda amalga oshirildi.

Tinglab tushunish bosqichi. Ushbu bosqichda o'qituvchi fe'llarni buyruq shaklida aytadi va ularni o'zi jismoniy harakat bilan namoyish qiladi. Masalan: *Stand up, Sit down, Walk, Stop*. O'quvchilar faqat kuzatadi va tinglaydi, tarjimadan foydalanilmaydi. Bu bosqich TPR metodining asosiy tamoyiliga - "avval tushunish, keyin gapirish" - to'liq mos keladi [1,p.12].

Bajarish bosqichi. O'quvchilar o'qituvchi buyruqlarini mustaqil bajaradilar. Fe'llar va buyruq gaplar harakat bilan mustahkamlanadi. Masalan: *Jump, Turn around, Clap your hands, Open the book*. Buyruqlar ketma-ketlikda berilib, murakkablik darajasi asta-sekin oshiriladi. Bu bosqich o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi va fe'llarni real kontekstda o'rganishga yordam beradi [2,p.45].

Faol ishtirok bosqichi. O'quvchilar o'zlari buyruq gaplarni aytib, sinfdoshlariga topshiriqlar beradi. Masalan, bir o'quvchi *Stand up* desa, boshqasi *Open the window* kabi buyruqlar beradi. Shu tarzda o'quvchilarning nutqiy faolligi, o'zaro muloqoti va kommunikativ kompetensiyasi rivojlantiriladi [4,p.61].

Amaliy mashqlar va o'yinlar: Tadqiqot jarayonida TPR metodining samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy mashqlar va o'yinlar tanlandi. Quyida ushbu o'yin va mashqlar

"Buyruqlar zanjiri" o'yini. O'qituvchi bir nechta buyruq gaplarni ketma-ket aytadi (masalan: *Stand up - Walk - Stop - Sit down*). O'quvchilar buyruqlarni aynan berilgan tartibda bajarishlari kerak. Bu mashq diqqatni jamlash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5,p.18].

"Xatoni top" mashqi. O'qituvchi buyruqni aytadi, lekin harakatni ataylab noto'g'ri bajaradi. Masalan, *Jump* deb aytib, o'tirib oladi. O'quvchilar xatoni topib, to'g'ri harakatni bajarishlari kerak. Bu mashq fe'llarning ma'nosini mustahkamlash, eslab qolish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi [2,p.57].

"Harakatni taxmin qil" mashqi. Bir o'quvchi fe'lni aytmadan faqat harakat orqali ko'rsatadi, qolgan o'quvchilar esa qaysi fe'l ekanligini taxmin qiladilar (masalan, sakrash harakati orqali *Jump* fe'lini topish). Bu mashq fe'llarni eslab qolish va albatta lug'at boyligini mustahkamlashga yordam beradi [3,p.41].

"O'quvchi - o'qituvchi" roli. Bir o'quvchi vaqtincha o'qituvchi rolini bajaradi va sinfdoshlariga buyruq gaplar beradi. Qolgan o'quvchilar buyruqlarni bajaradilar. Bu mashq o'quvchilarning ishonchini oshiradi va buyruq gaplarni faol nutqda qo'llashga yordam beradi [4,p.61].

Ushbu metodologiya o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va til darajasini hisobga olib, TPR metodining boshlang'ich bosqichdagi samaradorligini amaliy dars tajribasida kuzatishga imkon yaratdi. Natijalar o'quvchilarning tinglab tushunish, fe'llarni eslab qolish va buyruq gaplarni qo'llashdagi sezilarli o'sishni ko'rsatdi [5,p.18].

Natija. Tadqiqot davomida TPR metodidan foydalangan holda fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishning samaradorligi o'quvchilarning faolligi, til materialini o'zlashtirish darajasi va darsdagi kuzatuvlar asosida tahlil qilindi. Natijalar boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar uchun ushbu metodning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

1. O'quvchilarning faolligi va ishtiroki. TPR metodidan foydalangan darslarda o'quvchilarning faolligi an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar buyruq gaplarni bajarish jarayonida passiv tinglovchi roldan chiqib, darsga faol jalb qilindi. Bu holat metodning asosiy afzalliklaridan biri bo'lib, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi [1,p.29]. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki,

o'quvchilar buyruqlarni harakat bilan bajarayotganda charchoq holati deyarli kuzatilmadi, ular dars davomida qiziqish va e'tiborini yuqori darajada saqladilar.

2. Fe'llarni eslab qolish darajasi. Fe'llarni jismoniy harakatlar orqali o'rganish ularni uzoq muddatli xotirada saqlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilar fe'llarni tarjimasiz tushunib, ularni to'g'ri harakat bilan bog'lash imkoniga ega bo'ldilar [2,p.57].

Quyidagi jadval TPR metodi asosida o'rgatilgan fe'llarning o'zlashtirish darajasini ko'rsatadi:

Ko'rsatkichlar	Dars boshida	TPR asosida darsdan so'ng
Fe'llarni tanish (%)	35%	85%
Buyruq gaplarni tushunish (%)	40%	87%
Harakat bilan to'g'ri bajarish (%)	45%	92%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, TPR metodidan so'ng o'quvchilarning fe'llarni tushunish va bajarish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

3. Buyruq gaplarni tushunish va qo'llash. Buyruq gaplarni o'rgatishda TPR metodi ayniqsa samarali bo'ldi. O'quvchilar *Stand up, Sit down, Open the book, Close the door* kabi buyruqlarni tez va to'g'ri bajara boshladilar. Keyinchalik ular o'zlari buyruq gaplarni og'zaki nutqda qo'llashga o'tdilar.

Amaliy mashqlar davomida o'quvchilarning buyruq gaplarni noto'g'ri tushunish holatlari kamaydi, bu esa metodning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi [3,p.41].

4. Psixologik muhit va motivatsiya. TPR metodidan foydalangan darslar o'quvchilar uchun ijobiy psixologik muhit yaratdi. O'quvchilar xato qilishdan qo'rqmasdan darsga faol qatnashdilar, chunki ulardan darhol og'zaki nutq talab qilinmadi. Bu holat ularning ishonchini oshirdi va chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirdi [4,p.61].

Shuningdek, o'quvchilar dars davomida amaliy mashqlar va o'yinlar orqali til o'rganishni qiziqarli deb baholadilar, bu esa metodning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatganini yana bir bor tasdiqladi. Umumiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Fe'llar va buyruq gaplar tezroq va samarali o'zlashtirildi, o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi, tinglab tushunish ko'nikmasi rivojlandi, dars davomida stress va qo'rquv kamaydi. Bu natijalar TPR metodining nazariy asoslari bilan mos keladi va uning boshlang'ich bosqichdagi chet tili darslari uchun samarali metod ekanligini tasdiqlaydi [5,p.18].

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari Total Physical Response (TPR) metodining fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishdagi samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida olingan kuzatuvlar va natijalar J. Asher tomonidan ilgari surilgan TPR nazariyasi bilan to'liq mos keladi. Ya'ni, til o'rganish jarayoni avvalo tinglab tushunish orqali amalga oshiriladi va nutq tabiiy ravishda keyingi bosqichda shakllanadi [1,p.29]. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, fe'llar jismoniy

harakatlar bilan uyg'un holda o'rgatilganda, o'quvchilar ularni tarjimasiz tushunishga erishadilar. Bu esa tilni sun'iy qoidalar asosida emas, balki real kontekstda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, buyruq gaplar tabiatan harakatga yo'naltirilganligi sababli, TPR metodining asosiy mexanizmlariga to'liq mos keladi [2,p.45]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy metodlarda o'quvchilar ko'pincha fe'llarni yodlashga majbur bo'lsa, TPR metodida ular fe'l ma'nosini harakat orqali ongli ravishda anglaydilar. Bu esa uzoq muddatli xotiraning faollashishiga olib keladi [3,p.41]. Buyruq gaplarni o'rgatish va kommunikativ ko'nikmalar. TPR metodi buyruq gaplarni o'rgatishda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan. O'quvchilar o'zlari buyruq gaplarni aytib, sinfdoshlariga topshiriqlar bera boshladilar, bu esa og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu tariqa metod o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, kommunikativ kompetensiyani mustahkamladi [4,p.61].

Amaliy mashqlar va o'yinlar (masalan, "Harakatni taxmin qil" va "O'quvchi - o'qituvchi" mashqlari) orqali o'quvchilar buyruq gaplarni to'g'ri tushunish va bajarish ko'nikmalarini rivojlantirdilar, bu metodning interfaol pedagogik yondashuv sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi [5,p.18]. TPR metodi dars jarayonida stresssiz va ijobiy psixologik muhit yaratadi. O'quvchilar xato qilishdan qo'rqmasdan faol ishtirok etadilar, chunki ulardan darhol nutq talab qilinmaydi. Bu holat "til to'sig'i"ni kamaytirishga yordam beradi va boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi [1,p.29]. Shuningdek, o'quvchilar o'yinlar va harakatli mashqlar orqali til o'rganishni qiziqarli deb baholadilar. Bu esa TPR metodining pedagogik samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuni ham inobatga olish kerakki ushbu metodning ham ayrim cheklovlari mavjud. Ushbu metod murakkab grammatik strukturalar va abstrakt tushunchalarni o'rgatishda yetarli emas, qolaversa yuqori darajadagi yozma nutqni rivojlantirish uchun yetarli vosita emas. Shuning uchun TPR metodini boshqa kommunikativ va kognitiv yondashuvlar bilan integratsiyada qo'llash tavsiya etiladi. Bu yondashuv o'quvchilarning til kompetensiyasini yanada kengroq rivojlantirishga xizmat qiladi [4,p.61]. Umuman olganda, tadqiqot natijalari TPR metodining boshlang'ich bosqichda fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Metod o'quvchilarning tinglab tushunish, eslab qolish va dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, stresssiz va motivatsiyali muhit yaratadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, TPR metodi zamonaviy chet tilini o'qitishda amaliy, interfaol va psixologik jihatdan qulay pedagogik yondashuv hisoblanadi [5,p.18].

Xulosa. Mazkur tadqiqot TPR metodining boshlang'ich bosqichdagi chet tili o'quvchilari uchun fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishda samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. TPR metodining asosiy afzalliklari shuki, birinchidan Fe'llarni

o'rgatishda yuqori samaradorlik, ikkinchidan Buyruq gaplarni tez va to'g'ri o'zlashtirish hamda darsdagi faollik va motivatsiyani oshirish va albatta psixologik qulaylik va stresssiz muhit yaratish.

Metodning cheklovlari mavjud bo'lsa-da, boshqa kommunikativ va kognitiv metodlar bilan integratsiyada qo'llanishi tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, TPR metodi boshlang'ich bosqichda fe'llar va buyruq gaplarni o'rgatishda samarali, amaliy va interfaol pedagogik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asher, J. (1969). The Total Physical Response Approach to Second Language Learning. The Modern Language Journal, 53(1),
2. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
3. Asher, J. (1977). Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook. Sky Oaks Productions.
4. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.